

ANTROPOSENTRIZMNING JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TADQIQ ETILISHI

*Zarina Murtozayeva Muxtor qizi
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Xorijiy tillar kafedrasi assistent-o'qituvchisi*

ИССЛЕДОВАНИЕ АНТРОПОЦЕНТРИЗМА В МИРОВОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

*Зарина Муртозаева Мухтаровна
Каттакурганский филиал Самаркандинского государственного
университета
Ассистент кафедры иностранных языков*



zarina.murtazayeva93@mail.ru

Tel: +998932270477
Orcid: 0009-0000-4239-
5846

RESEARCH OF ANTHROPOCENTRISM IN WORLD AND UZBEKISTAN LINGUISTICS

*Zarina Murtozaeva Mukhtor kizi
Kattakurgan Branch of Samarkand State University
Assistant Lecturer, Department of Foreign Languages*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi tilshunoslikning nisbatan yangi yo'nalishi sifatida e'tirof etilayotgan: antroposentrizm va bu yo'nalishning jahon va o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilishi holatlari, qarashlari va nazariyalari yoritilgan.

Komit so'zlar: antroposentrizm, lisoniy shaxs, kognitiv, kontseptual tizim, tildagi shaxs.

Аннотация: В данной статье описывается относительно новое направление современной лингвистики: антропоцентризм и случаи, взгляды и теории исследования этого направления мировыми и узбекскими учеными.

Ключевые слова: антропоцентризм, языковая личность, когнитивная, понятийная система, человек в языке.

Abstract: This article discusses the current status, views, and theories of anthropocentrism, a relatively new direction in linguistics, and the research of this direction by international and Uzbek scholars.

Key words: anthropocentrism, linguistic personality, cognitive, conceptual system, personality in language.

KIRISH
/INTRODUCTION). So'nggi paytlarda tilshunoslik fani nazariyalarida til tadqiqi til tabiatini inson bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqadigan zamonaviy fanning antroposentrifik yo'nalishi bo'yicha tilni o'rganishda muhim o'rinn tutishi ko'zda tutildi. Antropotsentrifik tadqiqotlar obyekti qayd etilgan masalalarga yechim topishi mumkin bo'lgan yo'nalish sifatida yuzaga keldi. Antropotsentrizm (yunoncha «anthropos» – «inson», lot. «sentrum» — «markaz») — ilmiy yo'nalish bo'lib, uning asosiy masalasi inson - olam markazi

(**ВВЕДЕНИЕ**)
sifatida tadqiq etilishidir. Antropotsentrifik ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli barcha hodisalar (jamiyat, tabiat, madaniyat, bilish va hokazo) bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Hozirgi vaqtida turli fanlar (falsafa, ekologiya, tilshunoslik, mantiq va boshqalar) insonni o'zlarining tadqiqot obyekti bilan bog'liq holda tadqiq qiladilar.

Tilshunoslikda antropotsentrifik yondashuv tilni uning mavqeidan kelib chiqib "lisoniy shaxs", ya'ni inson faoliyatining kognitiv, ijodiy, aqliy va boshqa turlarini o'rganish va ularning tilda aks etish

masalasi muhim sanaladi. «Lisoniy shaxs» tamoyilida til-muloqot vositasi, xalqning ma’naviy va moddiy tajribasining yig‘indisi, madaniy, ijtimoiy va tarixiy muhitning aksi hamda milliy dunyoqarashga ta’sir etish usuli ekanligini anglash imkonini berdi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Inson faoliyatining barcha xilmalari va mohiyatini, ularning kognitiv mexanizmlarini inson faoliyatining asosiy quroli sifatida tilsiz tushunish mumkin emas. Shuning uchun ham «til inson faoliyatini bog‘lab turadi. Aniqroq qilib izohlaydigan bo‘lsak, til - insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi, inson faoliyatini boshqaruvchi kuchdir» [1].

Tilshunoslikdagi antropotsentrik yo‘nalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Ma’lumki, til va inson tabiatining o‘zaro aloqadorligi til falsafasining asoschisi bo‘lgan buyuk nemis olimi, faylasuf, tilshunos Vilgelm Gumboldtning g‘oyalari bilan boshlangan. Olimning fikricha, til insonning olamga bo‘lgan ma’naviy munosabatini belgilab beruvchi ma’naviy ijodiy ishlarning uzluksiz jarayonidir. U tilning insonning o‘zini anglashidagi o‘rniga alohida e’tibor berib, tilni insonning ma’naviy-ijodiy individualligini, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va ichki rivojlanishini belgilovchi omillardan biri deb ataydi. Gumboldt o‘zining lingvistik-falsafiy asarlarida tilning rivojlanishini inson tabiatining ichki dunyosi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi va til va xalq ruhi ajralmas, bir xil va o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda, bir xilda bo‘ladi, degan tezisni ilgari suradi. Muallifning fikricha tilni xalq ruhiyatidan, tashqi ko‘rinishidan, milliylikni, uning ruhiyatini, millatning o‘zligini ayro tasavvur qilish qiyin. Ta’kidlash joizki, milliy til har bir xalqning yetakchi mavqega ega va aynan til milliy qadryatlarni belgilaydi.

Til orqali har bir xalqning ma’naviy qadryatlari shakllanadi, tajribasi oshadi, bilim bilan dunyoqarashi rivojlanadi va konseptuallashadi. Ijtimoiy tuzimda til eng muhim ma’lumot yetkazuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga til xalqning kognitiv faoliyatini eng muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi. Insonning faoliyati ona tilga asoslanadi, u orqali inson dunyoni anglaydi, shuning uchun ham til inson tafakkurining o‘chog‘i

sanaladii. Shu sabab tilga antroposentrik yondashuv lisoniy paradigmasing nazariy asosini tashkil etadi. [1]

Tilga antropotsentrik yondashuv orqali lisoniy qurilmarida inson tafakkuri, mulohazasi, qarashlari va hokazolar ifodasi shakllandi. Mazkur yondashuv tilshunoslikda asrlar davomida tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, tilni o‘rganishda yangi vazifalar qo‘ymoqda, tilni tavsiflashning yangi usullari, til birliklari, tushunchalari va qoidalariga nisbatan yangicha nuqtai nazarlarni talab qilmoqda. Buning asosi sifatida T.V.Kunin ta’sis etgan “Структура научных революций” asarida ba’zi masalalarga to‘xtalish lozim. Muallif bu yo‘nalishga alohida ilmiy soha sifatida qarashni taklif qiladi. U ma’lum bilimlar va tadqiqot obyektini (ya’ni tilni) tavsiflovchi usullarga ega bo‘lishini qayd etadi.

Antropotsentrik nazariyada lisoniy shaxs obyekt sifatida o‘rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, til insonda, inson tilda tahlilga tortiladi. I.Boduen-de-Kertenening fikricha, “til faqat yakka shaxsning ongida, ruhida, qalbida bo‘ladi, bu shaxs til jamoasini tashkil qiladi”. Tilni anropotsentrik nuqtai nazardan o‘rganish g‘oyasi – zamonaviy tilshunoslikda asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Hozirgi kunda lisoniy tahlilning maqsadi tilning turli sistemalari namoyon bo‘lishini o‘rganishdan iborat emas. Ma’lumki, til tadqiqi murakkab hodisa bo‘lib, uni tizimli o‘rganish taqozo etiladi [2].

Tilning o‘zligi shu qadar o‘ziga xoski, tabiatan uni bir nechta strukturadan iborat deb baholash mumkin. Har bir struktura o‘ziga xos lingvistik shaklga ega bo‘lishidan tashqari kognitiv faoliyat mahsuliligidan dalolat beradi. Zamonaviy tilshunoslik paradigmasing nazariy-kognitiv tadqiq qilish hozirgi zamon sharoitida tobora dolzarb bo‘lib bormoqda va zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy sharti hisoblanadi. Tilni dialektik hodisa sifatida ko‘rib chiqishga asoslangan antropotsentrik tadqiqot ishlari tilning inson mohiyatiga, uning fikrlash qobiliyatiga, turmush tarziga ta’sirini va aksincha, insonning tilga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Har bir xalqning olamni idrok etish va real olamni anglash vositasi sifatida orttirgan tajribasi hozirgi vaqtida fanning boshqa sohalari bilan ham tadqiq qilinmoqda, bu esa zamonaviy fan sohalarining fanlararo xususiyatini tasdiqlaydi. Til bilishni manbai bo‘lib, u etnos madaniyat,

psixologiya, falsafa kabi yo‘nalishlarga uzviy bog‘liq. Tilshunoslikning amaliy xarakterga ega bo‘lgan yo‘nalishlari qatoriga kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabilarni kiritish joiz. Hozirgi kunda bu fanlarning har biri o‘ziga xos ilmiy-intizomiy xususiyatga, o‘ziga xos tadqiqot obyektiga va predmetiga, va kontseptual tizim va kategoriyalariga ega. Antropotsentrisk xarakterdagi tadqiqot ishlarida inson tabiatining evolyutsiyasi uning intellektual qobiliyatları, dunyoqarashi va dunyoni idrok etishi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Antropotsentrism tamoyilini tasvirlashda tilshunoslikda turlicha yondoshadi. Xusan, V.Gumboldt tilni o‘rganish “insonning o‘zini o‘zi bilishi va uning atrofidagi olamni anglash va yashirin bo‘lgan voqeliklarga munosabati maqsadi”, deb yozgan edi. L.A. Manerko antropotsentrisk paradigma tushunchasi inson bilan, uning mohiyatini, uning rolini va tafakkuri ishtirokini ochib berish bilan bog‘liq, deb ta’kidlaydi. Muallif bu paradigma shaxsning tildagi inson omilini ochib berilishiga qaratilgan [3].

Ko‘rinadiki, til va inson ya’ni antroposentrism mavzusi doim tilshunoslar e’tiborida bo‘lib kelgan. Bu shu sohadagi lingvistik tadqiqotlarning paydo bo‘lishi va faol rivojlanishiga xizmat qildi. Yu.S. Stepanov, E. Benveniste konsepsiyasini tahlil qilib, shunday deydi: «Til shaxsning baholashiga bog‘liq va shuning uchun tilshunoslik hamisha odamda til va tildagi shaxs haqidagi fan bo‘lib qoladi» [3]. Shuningdek, u antropotsentrizmning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, chunki qiyosiy-tarixiy va tizimli-strukturaviy paradigmalardan farqli o‘laroq, ikkinchisi o‘z maqsadini «tilning tashqi munosabatarini aks ettiradigan voqelik va u xizmat qilayotgan so‘zlovchi bilan o‘rganish nazarda tutiladi. [1]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Asosiy falsafiy va lingvistik yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish quyidagi xulosani shakllantirishga imkon berdi: antropotsentrism uning mohiyatini izlash va tan olishda uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Shu munosabat bilan biz bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan «antropotsentrism» atamasining to‘rtta tushunchasini shakllantiramiz:

Birinchidan, - antropotsentrism - inson tafakkurining o‘lchovi sifatida; - antropotsentrism - tilning xususiyati sifatida (antropomorfizm);

Ikkinchidan, - antropotsentrism - til hodisalarini tahlil qilish usuli. intuitivizm);

Uchunchidan, antropotsentrism tilshunoslikda falsafiy pozitivizmni yengish va lingvistik tavsif tilini insonparvarlashtirishda o‘zini namoyon qilish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy izlanish sifatida.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, antropotsentrism bo‘yicha tadqiqotlarni qisqacha ko‘rib chiqish antropotsentrisk paradigmaning shakllanishini aniqlash imkonini beradi. Ya’ni insonni tilda va tilni insonda faol o‘rganish, ularni bir butunga birlashtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alpatov V., Vilgelm Gumboldt. Tilshunoslik tarixi. – Potsdam. 1999. – B. 368.
2. Razduev A.V. Antroposentrik aspektda nanotexnologiyalarning zamonaviy ingliz terminologiyasi // Kognitiv tilshunoslik masalalari. 2015. No1. B. 143-149.
3. Stepanov YU. S Emil Benveniste va tilshunoslik transformatsiya yo‘lida/ Yu. S. Stepanov// Benveniste E. Umumiyl tilshunoslik. – M.: URSS, 2002. – B. 5-16.

